

## QUROLLI KUCHLARDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN

*Chirchiq OTQMBYu*

T va UQF kafedrasida – katta o‘qituvchi  
*podpolkovnik A. A. Sharipov*

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlar huquqiy mavqei uzil-kesil va eng yuksak darajada mustahkamlandi. Uning 125-moddasida: "O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi", deb belgilanishi davlat Qurolli Kuchlarining asl maqsad va vazifalarini dunyo hamjamiyati oldida yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiya asosida Vatan himoyasi mamlakatning har bir fuqarosi uchun muqaddas va sharafli burch ekani belgilanib, 52-moddada mustahkamlab qo‘yildi. Unga asosan, "O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir", Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida"gi Qonunning 1- moddasi bilan mustahkamlandi. Mazkur moddada "O‘zbekiston Respublikasini tashqaridan bo‘ladigan qurolli tajovuzdan himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitusiyaviy burchi", deb ko‘rsatildi. Ushbu konstitusiyaviy burchni ado etish O‘zbekiston Respublikasining "Mudofaa to‘g‘risida"gi Qonuni bilan mustahkamlandi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatlari asosida harbiy xizmatga chaqirish hamda fuqarolarning shartnomaga asosan harbiy xizmatni o‘tashi belgilandi.

Mamlakat mudofaasining huquqiy bazasini tashkil etishda 1995 yil 6 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida mamlakat Harbiy Doktrinasi loyihasining birinchi o‘qishda ma’qullanishi va mazkur hujjatni umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilinishi hamda shu yil 30 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sesiyasida qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur hujjat muhokamasida keng xalq ommasining ishtirok etishi mamlakat

mudofaa tizimini yaratish va mudofaani tashkil etish umumxalq ishi ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. .[1]

Mamlakatdagi mudofaa sohasidagi tub o'zgarishlar, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi (yangi tahriri, 2001 yil 11 may) va "Umumiy harbiy majburiyag va harbiy xizmat to'g'risida"gi (2002 yil 12 dekabr) qonunlari qayta ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilindi. .[2]

Amalga oshirilgan bu ishlar Qurolli Kuchlarni har tomonlama takomillashtirdi, unga jangovarlik baxsh etdi, shaxsiy tarkibni jipslashtirdi, harbiy xizmagchilarnipg mavjud harbiy-siyosiy vaziyatda mas'ul vazifalarini bajarishga qodirligini oshirdi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirdi, kadrlar tayyorlash tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tardi, armiyani mamlakatda hamda mintaqada tinchlik va barqarorlik kafolatiga aylantirdi.

Mustaqillik – bu, bizning huquqimiz, ota-bobolarimizning asriy orzu-umididir.

Bugun biz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan jamiyat qurishga intilmoqdamiz. Buning uchun armiyamiz ham shunga muvofiq bo'lishi kerak.

Milliy armiyani tashkil etish borasidagi masalalarni echishda biz ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishimiz kerak, yoshlar kelajak uchun mas'ulligini his qilishsin.

Shunday tarbiya berish kerakki, armiyamiz kuchli bo'lishi, zamon talablariga, dunyo andozalariga javob berishi kerak. Bunday armiyani engib bo'lmaydi. .[3]

Vatan himoyachilari kunining ahamiyatiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz bu kunning bayram sifatida nishonlanishi nafaqat tarixiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham egaligini aytdi.

Biz millati, tili, dinidan qat'i nazar, shu yurt fuqarolaridan tashkil topgan o'z professional armiyamizga ega bo'lishimiz, armiyamiz o'z xalqiga sadoqatli, shu yurtni jondilidan sevadigan vatanparvarlardan tashkil topishi kerak.

Harbiylik kasbini tanlaganlarni qadrlashimiz, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnati munosib taqdirlanishi lozim.[4]

Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan O'zbekistonning davlatchiligi taraqqiyotida xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish hamisha ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Mamlakat sarhadi tinchligini ta'minlash Qurolli Kuchlar bilan bir qatorda, uning ichki hayoti na fuqarolarning tinch-osoyishta hayotini taminlovchi huquq-tartibot organlari faoliyatiga ham bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov sobiq SSSR parchalanganidan keyingi vaziyatni shunday ta'riflagan edi: "Ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash tizimining parchalanishi natijasida jamiyatda huquqiy bo'shliq vujudga kelgani, millatlar va dinlararo, hududiy va turli guruhlar, urug'-aymoqlar o'rtasidagi ziddiyatlarning avj olib ketishi xavfi, radikal kayfiyatlarning, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kuchayishi g'oyat jiddiy xatarga aylangan edi. Qisqacha aytganda, tub ildizlari sovet davlatining so'nggi yillariga borib taqaladigan ichki va tashqi mojarolardan mamlakatimizni asrab qolish talabi o'ta keskin bo'lib turar edi".

Bu vaqtda O'zbekistonda hufyona iqtisodiyotda savdo mafiyasi boshliqlarining, moddiy va moliya resurslarini taqsimlash tarmog'idagi nahanglarning, yashirin jinoiy guruh etakchilarining "nufuzi" juda baland edi. Bu kuchlar birlashib, har lahzada har qanday jarayonga ta'sir o'tkazishi mumkin edi. Respublikada huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning qonuniy asoslari to'liq shakllanmagan edi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga ichki ishlar idoralari uchun bir necha mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash vazifasi belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida yuz bergan o'zgarish va yangilanishlarda, yuksalishlarda ichki ishlar xodimlarining

ham o‘ziga xos o‘rni va hissasi bor, albatta. Ichki ishlar idoralari huquq-tartibot xizmatlari bilan hamkorlikda el-yurt osoyishtaligi, bunyodkorlik mehnati, haq-huquqi himoyasini mustahkam ta’minlab kelmoqda.

Mamlakatning hududiy yaxlitligi, xavfsizligini himoya qilishda, mudofaa taktikasi va strategiyasi masalalarini bajarishda, favqulodda vaziyatlarda yuksak samaradorlikni, ularning harakatlari uyg‘unligini ta’minlash uchun Mudofaa vazirligi, Chegara va Ichki ishlar vazirligi qo‘shilma va qismlari, Qurolli Kuchlarning boshqa harbiy tuzilmalarining o‘zaro hamkorlik tizimini, mexanizmini yaratdi.

Rivojlangan mamlakatlar armiyalaridagi o‘zgarishlar, tajribalar asosida Qurolli Kuchlar qism va bo‘linmalarining tashkiliy-shtat tarkibini takomillashtirish, ularning harakatchanligi, tezkorligi va jangovar shayligini ta’minlash. Maqbul jangovar tarkibni aniqlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarishning samarali tizimini tashkil etdi.

Harbiy xizmatchilarning ruhiy-psixologik sifatlari kuchayishiga, Vatanga sadoqati, harbiy burchga sodiqligi oshishiga qaratilgan ma’naviy-ahloqiy, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi qayta ko‘rib chiqildi.

Qurolli Kuchlarning zamonaviy qurol-aslahalar, harbiy texnikalar va moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlandi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy armiyalar darajasida harbiy-texnikaviy tomondan qayta qurollantirishning kompleks, maqsadga yo‘naltirilgan dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirildi.[1]

Chegara va Ichki ishlar vazirligi moddiy bazasi va kadrlar tarkibini mustahkamlandi.

Biz mustaqil taraqqiyotimizning qisqa davrida ochiq demokratik davlat qurish, jamiyatni yangilash, odamlarimizning munosib hayot kechirishi va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan erkin iqtisodiyotni barpo etish borasida salmoqli yo‘lni bosib o‘tdik.

Istiqlolimizning birinchi kunidanoq biz zamon talablariga javob beradigan, tezkor va harakatchan tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog‘ va

texnikaga ega bo'lgan milliy armiyani shakllantirishgina o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish, xalqimizning tinchligi, xavfsizligi va osoyishtaligini, mamlakatimizning hududiy yaxlitligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash imkonini berdi.

Hozirgi tahlikali zamonda biz qanday murakkab vaziyatda yashayotganimizni, insoniylik qiyofasini umuman tamoman yo'qotgan xalqaro terrorizm balosi mintaqamiz va butun dunyo uchun tahdid, qanday xavf xatar tug'dirayotganini barchamiz yaxshi anglaymiz. Bunday holatda doimo hushyorlik va ogohlikni saqlash, har birimiz uchun o'z uyimizni, ona o'zbekistonimizdagi tinchlik va barqarorlikni asrash va himoya qilish har qachongidan ham muhim ahamiyatga egadir.[1]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviat" 2008. - 176 b.

2.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағсида. Ҳавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: "Ўзбекистон" 1997. - 326 б.

3.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эритиш остонсида. Т.: "Ўзбекистон" 2012. - 440 б.

4.Содиқов Х.Ж., Иноятов И.Ю.. Армия давлат таянчи тинчлик кафолати./ Тўплам.- Тошкент: "Шарқ", 2004.-176 б.